

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA ILM-FAN  
TARAQQIYOTI

**Karimboyeva Dilobar To'rayevna**

*Shayxontohur tuman politexnikumi*

*tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mustaqillik yillarida ilm-fan sohasida amalga oshirilgan o'zgarishlar va taraqqiyotlar haqida so'z yuritiladi. Mustaqil davlat sifatida O'zbekiston ilm-fan rivojlanishining asosiy yo'nalishlari, yangi texnologiyalar joriy etilishi, ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar va xalqaro ilmiy hamkorliklar tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy ilm-fanning ahamiyati, milliy kadrlarni tayyorlash va innovatsion yondashuvlar orqali yuksak natijalarga erishish yo'llari ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari va strategik rejalar batafsil yoritiladi.

**Kalit so'zlari:** Mustaqillik, ilm-fan, innovatsiya, texnologiya, ta'lim islohotlari, xalqaro hamkorlik, ilmiy izlanishlar.

**Аннотация:** В статье рассматриваются изменения и достижения в сфере науки за годы независимости. Анализируются основные направления развития науки в Узбекистане как независимом государстве, внедрение новых технологий, реформы в системе образования и международное научное сотрудничество. В статье показана значимость современной науки, пути достижения высоких результатов посредством подготовки национальных кадров и инновационных подходов. Также подробно рассматриваются государственные программы и стратегические планы развития науки и технологий.

**Ключевые слова:** Независимость, наука, инновации, технологии, реформы в образовании, международное сотрудничество, научные исследования.

**Abstract:** This article discusses the changes and developments in the field of science during the years of independence. The main directions of the development of science in Uzbekistan as an independent state, the introduction of new technologies, reforms in the education system, and international scientific cooperation are analyzed. The article shows the importance of modern science, ways to achieve high results through the training of national personnel and innovative approaches. It also discusses in detail state programs and strategic plans for the development of science and technology.

**Keywords:** Independence, science, innovation, technology, educational reforms, international cooperation, scientific research.

Mustaqillik yillarida ilm-fan rivojlanishi yanada orta bordi. Turli sohalarda o'zgarishlar va rivojlanishlar o'sa boshladi. Har bir sohada sezilarli darajada o'sishlar bo'ldi. Ilm-fanning nazariy asosi sifatida bilimning fundamental ahamiyati va uni amaliy hayotga tatbiq etish zaruriyati tahlil qilinadi. Fan rivoji mamlakatning ilmiy salohiyatini belgilaydi, innovatsion yondashuvlar orqali jamiyatni yuqori bosqichga

olib chiqadi. Mustaqillik yillarida qabul qilingan strategik dasturlar, ilmiy markazlar faoliyati va kadrlar tayyorlash tizimidagi o'zgarishlar ilm-fan sohasining uzluksiz rivojlanishiga asos yaratdi. Mustaqillik yillarida zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va qo'llashning rivoji kuzatildi. Misol uchun, energetika sohasida quyosh panellari va shamol energetikasi texnologiyalarimuvaffaqiyatli tadbiri qilinmoqda. Biotexnologiya sohasida qishloq xo'jaligi ekinlarini genetik modifikatsiya qilish orqali hosildorlikni oshirish bo'yicha natijalarga erishildi.

Universitetlar va ilmiy markazlar o'rtasidagi hamkorlik natijasida ilmiy ishlanmalar ta'lim jarayoniga tatbiq qilinmoqda. Bu esa o'quvchilar va talabalar bilimni zamonaviy talablar asosida shakllantirishga yordam bermoqda. Akademik va amaliy fanlar o'rtasidagi integratsiya yangi yondashuvlarni shakllantirdi, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda o'z aksini topmoqda. Bu amaliy yutuqlar O'zbekiston ilm-fani rivoji uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda va kelajakda yangi imkoniyatlarni ochishga xizmat qiladi. Mustaqillik yillarida ilm-fan rivoji ulkan yutuqlarga erishdi. Ilmiy tadqiqotlarning amaliy ahamiyati ortib, innovatsion texnologiyalar iqtisodiyotning turli sohalariga joriy etildi. Zamonaviy texnoparklar, startaplar va raqamli platformalar nafaqat milliy rivojlanishning, balki xalqaro hamkorlikning ham asosiy vositalariga aylandi.

Shuningdek, fan va ta'limni integratsiya qilish orqali zamonaviy yondashuvlar ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Bularning barchasi O'zbekistonni global ilmiy hamjamiyatda munosib o'rin egallashiga xizmat qilmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekistonning kelajagi buyuk davlat bo'ladi.—Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Nurmatova D. Ilm-fan va ta'limni integratsiya qilishning dolzarb masalalari.—Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021.
3. Abdullayeva N., To'raqulov J. Zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
4. Xolmatov B. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va ilm-fan rivoji.—Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.